

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası

**D.Yu.XUJAMKULOV, D.X.AXMEDOVA,
Z.Dj.SAIDAXMEDOVA**

**“INVESTITSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH”
FANIDAN**

AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH UCHUN

USLUBIY QO'LLANMA

**Oliy ta'limning 5A230603 - Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va
sohalar: real sektor va bank sektori bo'yicha) magistratura
mutaxassisligi talabalari uchun**

TOSHKENT-2017

Xujamkulov D.Yu., Axmedova D.X., Saidaxmedova Z.Dj.
“Investitsiya loyhalarini boshqarish” fanidan amaliy mashg’ulotlar
olib borish uchun uslubiy qo’llanma. – T.: TMI, 2017. – 84 b.

Uslubiy qo’llanma “Investitsiya loyhalarini boshqarish” fanidan amaliy mashg’ulotlar olib borish uchun mo’ljallangan va fan mavzulari bo’yicha turli xususiyatlar va murakkabliklarga ega topshiriqlardan, jumladan, kalit so’zlar, mustaqil o’zlashtirish uchun savollar, testlar, masala va topshiriqlardan iborat.

Uslubiy qo’llanma magistrantlar, oliy o’quv yurti pedagoglari, ushbu fandan dars olib boruvchi professor-o’qituvchilar hamda fanni mustaqil o’rganuvchilar uchun mo’ljallangan.

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedra (2017 yil 5 maydagi 33-sonli) majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun institut o’quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan.

Mazkur uslubiy qo’llanma Toshkent moliya institutining Uslubiy kengashida tasdiqlangan va nashr etish uchun tavsiya etilgan etilgan (2017 yil “__” _____gi __-sonli yig’ilishi qarori)

Taqrizchilar: Almardonov M.I. – Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining “Moliya va soliqlar” kafedrasi professori, i.f.d.

Raimjonova M.A. – TMI “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi dotsenti v.b., i.f.n.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI.....	4
II. AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI.....	6
III. AMALIY MASHG'ULOTLAR TARKIBI VA MAZMUNI.....	10
1. LOYIHANI BOSHQARISH ASOSLARI VA KONTSEPTSIYASI.	10
2. LOYIHA BO'YICHA INVESTITSIYA STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	17
3. INVESTITSIYA LOYIHASINI TAYYORLASHNI TASHKIL QILISH (INVESTITSIYA OLDI FAZASI).....	23
4. LOYIHANING BIZNES-REJASI VA UNI TARKIBIY TUZILISHI.....	28
5. INVESTITSIYA LOYIHALARI MARKETINGI.....	33
6. LOYIHANING KAPITAL BYUDJETINI ISHLAB CHIQISH VA MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI SHAKLLANTIRISH....	40
7. LOYIHANING ISHLAB CHIQARISH REJASI.....	48
8. INVESTITSIYA LOYIHASINI BOSHQARISHNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH.....	55
9. LOYIHA RISKLARINI BOSHQARISH.....	60
10. LOYIHANING SIFAT MENEJMENTI.....	68
11. LOYIHA KOMANDASINI BOSHQARISH.....	73
12. LOYIHANI YAKUNLASH.....	78
AMALIY MASHG'ULOTLARGA TAYYORGARLIK KO'RISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83

KIRISH

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” fanini o’rganish talabalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo’yicha qarorlarni qabul qilish, ularni moliyalashtirish, monitoringini olib borish, shuningdek, samaradorligini ta’minlash bilan bog’liq mustahkam bilimlarni shakllantirish hamda amaliy ko’nikmalarni hosil qilish vazifalarini o’zida namoyon etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va halqaro integratsiyasini ta’minlashda investitsiya loyihalari alohida o’rin egalaydi. Ushbu jarayonda investitsiya loyihalari iqtisodiyotni qayta va zamonaviy qurollantirish orqali modernizatsiyalash, tarkibiy o’zgartirish va iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni jadal amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ularni, nafaqat, amalga oshirish, shuning bilan birga, samaradorligini ta’minlashga ham jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi. Ushbu masalaning echimini aynan investitsiya loyihalarini boshqarish asosida ta’minlash mumkin. Shu sababdan ushbu fan bo’lajak magistrnlarning o’z kasbi bo’yicha etuk mutaxassis bo’lib etishishida alohida o’rin egallaydi.

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” fanini o’rganishda talabalar loyihani boshqarish asoslari va kontseptsiyasi, loyiha bo’yicha investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, investitsiya loyihasini tayyorlashni tashkil qilish (investitsiya oldi fazasi), loyihaning biznes-rejasi va uning tarkibiy tuzilishi, investitsiya loyihalari marketingi, loyihaning kapital byudjetini ishlab chiqish va moliyalashtirish manbalarini shakllantirish va shu kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan mavzularni o’rganishi va o’zlashtirishlari lozim. “Investitsiya loyihalarini boshqarish” fanini chuqur o’rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o’ynaydi.

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” ixtisoslik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish uchun talaba o’quv rejasida rejalashtirilgan “Investitsiya”, “Moliyaviy menejment”, “Menejment. Marketing”, “Pul, kredit va banklar”, “Moliya bozori”, “Davlat moliyasini boshqarish”, “Korporativ moliya strategiyasi”, “Investitsiya siyosati”, “Investitsiyalarni iqtisodiy baholash”, “Loyihaviy moliyalashtirish”, “Investitsiya loyihalari ekspertizasi”, “Moliyaviy risklarni boshqarish” fanlaridan bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlik talab etiladi.

Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq talaba o’quv dasturda

keltirilgan zaruriy bilim, ko'nikma va malaka asoslariga ega bo'lishlikni talab etiladi. Zero, bularga ega bo'lish talabalarning kelajakda amaliy faoliyatini malakali bank mutaxassisi, investitsiya loyihalarini boshqarishni, ularning samaradorligini ta'minlovchi iqtisodchi-mutaxassis sifatida samarali amalga oshirishida muhim rol o'ynaydi.

I. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” fanining asosiy maqsadi talabalarda moliyaviy qo'yilmalarning maqbul yo'nalishlarini tanlash, ular samaradorligini aniqlash va ta'minlashda muhim ahamiyat egallovchi investitsiya loyihalarini boshqarishni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy usullaridan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, “Investitsiya loyihalarini boshqarish” fani bo'yicha amaliy (seminar) mashg'ulotlarini olib borishning asosiy maqsadi talabalarda investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash, kapital byudjetini ishlab chiqish va baholash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish, investitsiya loyihalari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalari samaradorligini ta'minlash va ular monitoringini olib borish hamda loyihani samarali yakunlash bo'yicha zaruriy nazariy bilimlar, malaka va amaliy ko'nikmalarni hosil qiluvchi fundamental bilimlarni shakllantirishdan iborat.

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” fani bo'yicha amaliy (seminar) mashg'ulotlari fan dasturi asosida olib boriluvchi ma'ruza darslari, nazorat ishlari, maslahat, mustaqil ta'lim, kurs ishi, ilmiy-tadqiqot ishi, malaka va ilmiy-pedagogik amaliyotlar, magistrlik dissertatsiya ishi kabi ta'lim jarayoni turlariga bevosita aloqadorlik kasb etadi.

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” fani bo'yicha amaliy (seminar) mashg'ulotlari ushbu fandan amaliy (seminar) mashg'ulotlariga zarur bo'lgan o'quv-uslubiy majmua, ishlanmalarni tayyorlovchi, amaliy (seminar) mashg'ulotlarini olib boruvchi va uni nazorat qilib boruvchi pedagog rahbarligida o'tiladi.

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari talabalarniing mustaqil fikrlashi,

ishlashi, ijod qilishi, izlanishi asosida o'z qarashlari, xulosalari, yo'nalishlariga ega bo'lishini ta'minlash, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining bir shakli hisoblanadi va pirovardida, taabalarda tushunchalar, bilimlar, yangi ko'nikmalar hosil bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mashg'ulotlar, shuningdek, talabalarda ma'ruza darsida olingan bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirish, mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Amaliy (seminar) mashg'ulotlari dars jarayonida pedagog rahbarligida va topshirig'i bo'yicha talabalar tomonidan bir yoki bir qancha amaliy mashg'ulotlarni bajarishni nazarda tutadi.

Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning bilish, mustaqil fikrlash, ishodiy faolligi qobiliyatlarini rivojlantirish; ma'ruza darslarida olingan umumiy shakldagi bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlash; ushbu hosil bo'lgan bilimlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

“Investitsiya loyihalarini boshqarish” fani bo'yicha amaliy (seminar) mashg'ulotlarini bajarish talabalarda:

- fanning aniq mavzulari bo'yicha olingan amaliy bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga;
- olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini shakllantirish, intellektual va amaliy faoliyatlari uyg'unlikda amalga oshirishga;
- o'zini shakllantirishga intilishga qaratilgan xususiy sifatlarni rivojlantirish: o'zini anglash, o'zini nazorat qilish, o'zini baholash, o'zini rivojlantirish va o'zini boshqarishga;
- bo'lajak mutaxassislarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga;
- mustaqillik, mas'uliyatlilik, javobgarlik, ijodiy tashabbuskorlik kabi kasbiy ahamiyat kasb etuvchi sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari uchun asosiy vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- “Investitsiya loyihalarini boshqarish” fanining nazariy holati va kontseptsiyasini, ushbu fanning ahamiyati, boshqa fanlar bilan bog'liqligini asoslashni tahlil qilish usullari va ularni amaliy qo'llashni talabalarga o'rgatish;
- talabalarda investitsiya loyihalarini boshqarish sohasidagi aniq amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish jarayonida zamonaviy nazariy va ilmiy-texnikaviy usullardan foydalanish qobiliyati va ko'nikmalarini hosil qilish;
- talabalarda ijodiy kasbiy fikrlash, kasbiy va ijodiy motivatsiyani rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida kasbiy bilimlardan foydalanish – tegishli fanga

oid terminologiyalarni egallash, muammo va vazifalar echimini topishda zaruriy tushuncha, bilim, aqliy qobiliyat, ijodiy yondashuvga ega bo'lishni shakllantirish;

- bilimlarni takrorlash va mustahkamlash;
- ilmiy fikrlash, nutq, auditoriya bilan muloqotni rivojlantirish;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi tezkor qayta aloqani tashkil etish va shu kabilar.

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun an'anaviy hamda zamonaviy pedagogik, axborot va ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

II. AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu. Loyihani boshqarish asoslari va kontsepsiyasi

Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Investitsiya loyihasining tushunchasi, maqsadi va strukturasi. Loyihalarni tasniflash: katta va kichik, ichki va tashqi, texnik va notexnik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari. Loyiha ishtirokchilari. "Loyihani boshqarish" tushunchasi. Loyihani boshqarish, investitsiyalarni boshqarish va funktsional menejmentning o'zaro bog'liqligi.

2-mavzu. Loyiha bo'yicha investitsiya strategiyasini ishlab chiqish

Investitsiya strategiyasi tushunchasi va uning ahamiyati. Loyiha bo'yicha investitsiya strategiyasini ishlab chiqish tamoyillari va bosqichlari. Investitsiya strategiyasini shakllantirish va loyiha strategiyasini ishlab chiqish. Loyiha bo'yicha investitsiyalash maqsadi va strategik yo'nalishlarini (resurslardan foydalanish) aniqlash. Loyihaning innovatsion faoliyat xususiyatlari va innovatsiya strategiyasini ishlab chiqishning ahamiyati.

3-mavzu. Investitsiya loyihasini tayyorlashni tashkil qilish (investitsiya oldi fazasi)

Investitsion tsikl, mazmuni va loyihani ishlab chiqish bosqichlari.

Loyiha tsikli bosqichlari. Loyiha kontseptsiyasini ishlab chiqish. Loyihaning investitsiya g'oyasini shakllantirish. Investitsiya loyihasi varinatlarini ishlab chiqish. Loyihaning hayotiylik tsikli: investitsiya oldi, investitsion, ekspluatatsiya fazasi. Loyihaning dastlabki rejasi. Investitsiya oldi tadqiqotlari. Loyiha hayotiyligini baholash. Loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomasi (DTIA) va texnik-iqtisodiy asosnomasi (TIA)ni ishlab chiqish tartibi, kelishuvi va tasdiqlanishi. Loyiha muhiti. Loyiha-qidiruv bosqichlari va qurilish bosqichi, Ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorgarlik hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi. Loyihaviy tahlilning mohiyati va tarkibiy tuzilishi.

4-mavzu. Loyihaning biznes-rejasi va uning tarkibiy tuzilishi

Biznes-rejalashtirishning mohiyati va vazifalari. Biznes-rejaning funktsiyasi va tarkibiy tuzilishi. Biznes-rejaning umumiy ma'lumotlari va rezyumesi. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari. Investitsion loyihalashtirishda biznes-rejaning xususiyatlari. Biznes-reja taqdimoti.

5-mavzu. Investitsiya loyihalari marketingi

Bozorni tadqiq qilishning zamonaviy kontseptsiyasi mohiyati. Marketing kontseptsiyasini shakllantirish. Marketingning strategik dasturi va xarajatlari dasturi. Marketing tadqiqotlari. Sotish dasturi. Loyihani amalga oshirish jarayonida marketingni boshqarish.

6-mavzu. Loyihaning kapital byudjetini ishlab chiqish va moliyalashtirish manbalarini shakllantirish

Kapital tarkibining nazariy asoslari. Kapital qiymatini baholash. Loyihaning kapital byudjetini ishlab chiqish va u bo'yicha qarorlar qabul qilish. Loyihani investitsiyalash imkoniyatlari va kapitalni muqobil ishlatish variantlari. Loyiha qiymatini boshqarishning asosiy tamoyillari. Loyiha qiymatini boshqarish, byudjetlashtirish. Loyiha qiymatini nazorat qilish usullari. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari, ularni jalb qilish.

7-mavzu. Loyihaning ishlab chiqarish rejasi

Loyihani amalga oshirishning asosiy bosqichlari. Qurilishning

smeta qiymati va investitsiya loyihasining umumiy xarajatlari tarkibi. Loyiha bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil qilish va texnologiyalarni tanlash. Texnologiyalarning tejamkorligini baholash. Mahsulot va resurslarga bo'lgan talabni aniqlash. Xaridlar va savdolarni o'tkazish. Savdolar qatnashchilari, ularning funktsiyalari, jarayoni, shartnomalar va majburiyatlar. Xom ashyo va resurslar bahosini nazorat qilish. Xom ashyo va resurslar zaxirasini aniqlash va ularni xarid qilish mablag'lari bilan ta'minlash. Mahsulotlarning sotilishi uzluksizligini ta'minlash. Xaridorlar talabini qondirish. Mahsulotlar zaxirasini shakllantirish.

8-mavzu. Investitsiya loyihasini boshqarishni rejalashtirish va tashkil etish

Loyihani rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish usullari va ularning mazmuni. Loyihani boshqarishni tashkil qilishning maqsadi. Rejalashtirish va boshqarishning tashkiliy bosqichlari. Loyihani nazorat qilish va tartibga solish. Loyihadagi o'zgarishlarni boshqarish. Loyiha bo'yicha ishlarning monitoringi.

9-mavzu. Loyiha risklarini boshqarish

Loyiha risklarini boshqarishning zarurligi. Loyiha risklarini boshqarishni tashkil etish. Risk turlari bo'yicha loyiha samaradorligiga ta'sirini baholash. Loyiha risklarining oldini olish chora-tadbirlari. Loyiha risklarini pasaytirish chora-tadbirlari. Loyiha risklarini qoplash chora-tadbirlari.

10-mavzu. Loyihaning sifat menejmenti

Sifat boshqarishning kompleks tizimi va xarajatlari. Sifatni boshqarishning zamonaviy kontseptsiyasi. Loyihaning sifat menejmentining mohiyati. Loyihaning sifat menejmentining dasturi. Me'yorlar va standartlar. Litsenzion faoliyatni amalga oshirish tartibi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish. Tugallangan qurilish ob'ektini ekspluatatsiyaga qabul qilish va uning sifatini baholash. Texnologiyalarga bo'lgan talab va uning sifatini tekshirish. Ishlab chiqarishga joriy etiladigan xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar sifatini baholash va nazorat qilish.

11-mavzu. Loyiha komandasini boshqarish

Investitsiya loyihalarini boshqarishda inson omili. Loyihani boshqarishda rahbarlik, liderlik qobiliyati va tajribasi. Loyiha komandasini tuzish, shakllantirish va rivojlantirish. Komandani samarali faoliyatini tashkil qilish. Komanda personalini boshqarish. Motivatsiya. Kelishmovchiliklarni boshqarish.

12-mavzu. Loyihani yakunlash

Loyihani ishga tushirishga tayyorlash. Uskunalarni ishga tushirish, dastlabki sinovdan o'tkazish va uning ish sifatini nazorat qilish. Texnologiyalarni boshqarishga zaruriy kadrlarni ta'minlash, ularni tayyorlash va malakasini oshirish. Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish. Daromadlar hisobiga investitsiyalar qoplanishi monitoringini olib borish. Loyiha samaradorligini baholash. Shartnomalarni yopish. Loyihadan chiqish.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR TARKIBI VA MAZMUNI

1-MAVZU. LOYIHANI BOSHQARISH ASOSLARI VA KONTSEPTSIYASI

1.1-topshiriq

Mavzu bo'yicha quyidagi kalit so'zlar mazmunini aytib bering:

1. Loyiha
2. Investitsiya loyihasi
3. Kontsepsiya
4. Loyiha tasnifi
5. Investitsiya loyihasining maqsadi
6. Investitsiya loyihasining tarkibi
7. Investitsiya
8. Loyiha turlari
9. Loyiha ishtirokchilari
10. Investor
11. Menejment
12. Loyihani boshqarish
13. Investitsiyalarni boshqarish
14. Funktsional menejment

1.2-topshiriq

Mustaqil o'zlashtirish va o'zini tekshirish uchun savollar:

1. "Investitsiya loyihalarini boshqarish" fanini o'qitishning maqsadi, ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat?
2. "Investitsiya loyihalarini boshqarish" fanining qanday iqtisodiy fanlar bilan aloqa va o'zaro bog'liqligi.
3. "Investitsiya loyihalarini boshqarish" fanini o'qin va o'rganishning ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati nimada?
4. Investitsiya loyihasi nima?
5. Loyiha va investitsiya loyihasi tushunchalarining iqtisodiy mohiyati va o'zaro farqli jihatlari.
6. Investitsiya loyihaning zarurligi va uning iqtisodiyotni

rivojlantirishdagi ahamiyati.

7. Investitsiya loyihani tasnifi.

8. Investitsiya loyihasini boshqarishning zarurligi nimada?

9. Investitsiya loyihalarini boshqarishning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

10. Investitsiya loyihasining texnik, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari nimada?

11. "Loyihani boshqarish" tushunchasi nima? Uning investitsiyalarni boshqarish bilan qanday funktsional bog'liqlik jihatlari mavjud?

12. Investitsiyalarni boshqarishning mazmun-mohiyati va ahamiyati.

13. Investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi ishtirokchilar kimlar va ularning tarkibi.

14. Investitsiya loyihalari ishtirokchilarining asosiy vazifalari.

15. Investitsiya loyihalarini boshqarishda loyiha ishtirokchilarining ahamiyati.

16. Moliyaviy menejment va loyiha menejmentining o'zaro bog'liqlik jihatlari.

17. Loyihalarni boshqarishni tashkil etish.

18. Loyihalarni boshqarishga zamonaviy yondashuvlar.

19. Loyihalarni boshqarishda axborotlar va ular manbalarining ahamiyati.

20. Investitsiya loyihalarini boshqarishning xorij tajribalari.

21. Yirik va kichik hajmli investitsiya talab loyihalarni boshqarishdagi farqlar.

22. Loyihalarni boshqarish kim tomonidan va nima sababdan amalga oshiriladi?


1.3-topshiriq

Loyiha turlarining nomi va mazmunini keltiring:

№	Loyiha nomi	Loyiha mazmuni
1		
2		
3		
...		
n		

1.4-topshiriq

Yirik hajmli investitsiya loyihalari ishtirokchilarini keltiring hamda ularning majburiyatlarini aytib bering:



1.5-topshiriq

Quyidagi jadval asosida investitsiya loyihasining turli belgilari bo'yicha tasnifini keltiring:

INVESTITsIYa LOYIHALARI TASNIFI												
Muddati bo'yicha		Qamrov i bo'yicha		Murak kabligi bo'yic ha		Faoliyat sohasi bo'yicha			Yo'nalis hi bo'yicha		Riskka aloqadorl igi bo'yicha	

1.6-topshiriq

Quyida keltirilgan ta'riflarga tegishli javob – iqtisodiy atamalarni toping:

№	Tushuncha/ta'rifi	Tegishli javobl ar
1	foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'yektlariga yo'naltiriladigan moddiy va nomoddiy qiymatlar va ularga doir huquqlar.	
2	ishlab chiqarishda qatnashadigan, uzoq vaqt davomida haqiqiy shaklini o'zgartirmaydigan, bir necha ishlab chiqarish tsiklida qatnashadigan va o'z qiymatini yangidan yaratiladigan mahsulotga asta-sekin o'tkazadigan mol-mulk guruhi.	
3	asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiyalashga, rekonstruktsiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar.	
4	foyda olish maqsadiga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat.	
5	yangi yoki takomillashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), ishlab chiqarish jarayonini, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yangi marketing uslubini yoki tashkiliy uslubni ishlab chiqish va o'zlashtirishga kiritiladigan investitsiyalar	
6	boshqa mamlakatlarning valyutalari, shuningdek boshqa mamlakatlarning valyutadagi kelishuv hujjatlari	
7	inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar.	
8	ilmiy, texnik, moliyaviy, sanoat, tijorat kabi turli bilimlar majmui; yoki omma tomonidan keng qollanilmaydigan boshqaruv, xarakter, tajriba, malakaviy faoliyat.	
9	moliyaviy, moddiy va inson resurslarining umumiy	

	qiymati bir-biriga to'g'ri keladigan investitsiya loyihalari.	
10	ko'chmas mulkka (bino, inshoot) va uning ishlashi uchun zarur bo'lgan ishchi kapitalga (xom ashyo, zahiralar, pul mablag'lari va b.) yo'naltiriladigan investitsiyalar, shuningdek nomoddiy aktivlarga (litsenziya, patent, savdo markasi va b.) yo'naltiriladigan investitsiyalar.	
11	qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarga (aksiya, obligatsiya, nota, depozit sertifikatlar, xorijiy valyuta, hukumat obligatsiyalari va qarzlar) yo'naltiriladigan investitsiyalar.	

Harfli belgilanishlar	Tegishli javoblar
A	Moliyaviy investitsiyalar
B	Real investitsiyalar
V	Muqobil loyihalar
G	Nou-xau
D	Ijtimoiy investitsiyalar
E	Xorijiy valyuta
J	Innovatsion investitsiyalar
Z	Biznes
I	Kapital investitsiyalar
K	Asosiy kapital
L	Investitsiyalar

1-mavzu bo'yicha test savollari:

1. Bir xil tarmoqqa oid analogik loyihalar bilan bir xil ko'rsatkichlarga ega loyihalar – bu:

- a. Import o'rnini bosuvchi loyihalar.
- b. Eksportga mo'ljallangan loyihalar.
- c. Tarmoqlararo loyihalar.
- d. Muqobil loyihalar.

2. Loyihalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

a. Maqsadga yo'naltirilganligi. Daromad keltirishligi. Riskka moyilligi. Vaqt bo'yicha cheklanganligi – loyihani ishlab chiqish hamda amalga oshirish muddatlarining cheklanganligi. Resurslarning cheklanganligi.

b. O'lchamchilik – loyiha bo'yicha faoliyat va kutilayotgan natijalarni miqdoriy ifodalash imkoniyatlarining mavjudligi. Vaqt bo'yicha cheklanganligi – loyihani ishlab chiqish hamda amalga oshirish muddatlarining cheklanganligi. Alohida faoliyat turlari bilan bog'liq hodisalarning aniq belgilangan ketma-ketligi. Maqsadga yo'naltirilganligi.

c. Natijaviyligi. Samaradorlikka asoslanganligi. Alohida faoliyat turlari bilan bog'liq hodisalarning aniq belgilangan ketma-ketligi. Maqsadga yo'naltirilganligi.

d. To'g'ri va to'liq javob keltirilmagan.

3. Investitsiya loyihalarini boshqarish – bu ...

a. Loyihalarni boshqarish orqali qo'yilgan maqsadga erishish tizimi va mexanizmi.

b. Loyiha bo'yicha kapital qiymatini saqlash va uni ko'paytirishga qaratilgan samarali tadbirlar tizimi.

c. Loyiyaning rejadan og'ib ketmasligini ta'minlash tizimi.

d. Loyiha egalari tomonidan o'z vakolati doirasida uning aktivlarini boshqarish va tasarruf qilish.

4. Investitsiya loyihalarini boshqarishda, eng avvalo, nimaga e'tibor qaratiladi?

a. Loyiha maqsadiga.

b. Loyiha sifatiga.

c. Loyiha ko'lamiga.

d. Loyiha strategiyasiga.

5. Loyiyaning murakkabligi bo'yicha turlarini ko'rsating.

a. Oddiy va murakkab.

b. Oddiy va sodda.

c. Murakkab va o'ta murakkab.

d. Oddiy va murakkab va o'ta murakkab.

6. Boshqaruv funktsiyasi deganda

a. U yoki bu ob'ektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

b. Korxonaning moddiy-texnika bazasini yaratishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

c. Xodimlarni korxonaning rejasini bajarishga safarbar qilishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

d. Loyihani boshqarishga jalb etilgan komanda faoliyati tushuniladi.

7. Investitsiya risklarini boshqarishning asosiy bosqichlarini sanab o'ting.

a. Riskni aniqlash; riskni tahlil qilish; riskni oldini olish; riskni nazorat qilish.

b. Riskni tasniflash; riskni sifat tahlili; riskni miqdor tahlili; riskni pasaytirish yo'llarini tanlash.

c. Riskni aniqlash; riskni baholash; riskni boshqarish choralari va usullarini tanlash; riskni oldini olish va nazorat qilish; riskni moliyalash; natijalarni baholash.

d. Riskni tasniflash; riskni baholash; riskni tahlil qilish; Riskni oldini olish; Riskni pasaytirish yo'llarini tanlash; natijalarni baholash.

8. Investitsiya menejmentining maqsadi – bu ...

a. Investitsiyalashni amalga oshirish va boshqarish.

b. Investitsiyalarni boshqarish tizimini yaratish va uni amalga oshirish.

c. Ko'proq foyda (daromad) keltiruvchi va kamroq riskka ega bo'lgan investitsiyalarni, investitsiya loyihalarini tanlashdan iborat.

d. Investitsiyalarning ob'ektga to'g'ri yo'naltirilishini ta'minlash.

9. Boshqaruv tizimi tarkibi nimalardan iborat?

a. Boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar.

b. Menejerlar, rahbarlar va xodimlar.

c. Iqtisodiy, ma'muriy va ijtimoiy usullar.

d. Oliy, quyi va o'rta boshqaruv bo'g'inlari.

10. Investitsiya loyihasini boshqarishning darajasi bo'yicha tartibini ko'rsating.

a. Korxona-hudud-tarmoq-iqtisodiyot.

b. Korxona-tarmoq-hudud-iqtisodiyot.

- c. Iqtisodiyot-hudud-tarmoq-korxona.
- d. Iqtisodiyot-tarmoq-hudud-korxona.

2-MAVZU. LOYIHA BO'YICHA INVESTITSIYA STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

2.1-topshiriq

Mavzu bo'yicha quyidagi kalit so'zlar mazmunini aytib bering:

1. Strategiya
2. Investitsiya loyihasi strategiyasi
3. Tamoyil
4. Loyiha bosqichlari
5. Investitsiya loyihasini shakllantirish
6. Investitsiyalash maqsadi
7. Loyihani investitsiyalash yo'nalishlari
8. Loyiha strategiyasi yo'nalishlari
9. Innoavtsiya loyihasi
10. Innovatsiya loyihasi strategiyasi
11. Investitsiya strategiyasi
12. Korxona strategiyasi
13. Strategik rejalashtirish
14. Moliyaviy investitsiyalar
15. Real investitsiyalar
16. Foyda
17. Bashoratlash
18. Brutto-investitsiya
19. Sof investitsiya
20. Investitsiya muhiti
21. Iqtisodiyot tarmoqlari

2.2-topshiriq

Mustaqil o'zlashtirish va o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Loyihalarni boshqarishda loyiha maqsadi va strategiyasining ahamiyati.

2. Loyihalarni boshqarishga uni moliyalashtirish manba va usullarining ta'siri.
3. Loyiha strategiyasi va uni ishlab chiqishning zarurligi.
4. Loyiha strategiyasini belgilash va amalga oshirishdagi sabab va omillari.
5. Loyiyaning innovatsion strategiyasi.
6. Loyihaga bog'liq bo'lgan strategiyalar turlari va yo'nalishlari.
7. Strategik rejalashtirishning loyihani boshqarishga ta'siri.
8. Ishlab chiqarish va iqtisodiy faollikni ta'minlashga loyiha strategiyasi ta'siri.
9. Loyihani investitsiyalash yo'nalishlari nimalardan iborat?
10. Korxona strategiyasi mazmunini tushuntirib bering.
11. Bashorat qilishning investitsiya loyihasi istiqbolini belgilashdagi ahamiyati nimada?
12. Loyiha bosqichlari tarkibini aytib bering.
13. Loyihani moliyalashtirish manbalarini boshqarish.


2.3-topshiriq

Quyidagi korxona investitsiya faoliyatida strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishdagi vazifalarni keltiring:

1	
2	
3	


2.4-topshiriq

Quyida keltirilgan korxona investitsion strategiyasini tuzish jarayoni asosiy bosqichlari mazmunini keltiring:



2.5-topshiriq

Quyidagi kompaniyaning ishlab chiqilgan investitsion strategiyasini baholash mezonlari mazmunini aytib bering:



2-mavzu bo'yicha test savollari:

1. Loyiha menejeri kim?

- Loyihaga ta'sir ko'rsatuvchi va uni boshqarib boruvchi sub'ekt.
- Muayyan uslublar va vositalar orqali loyiha rejasining bajarilishini amalga oshiruvchi sub'ekt.
- Loyiha tashabbuskori, ta'sischisi yoki ishtirokchisi sifatida asosiy qarorlarni qabul qiluvchi sub'ekt.
- Loyihaga yo'naltirilgan kapital harakati, pul oqimi, foyda, jamg'arma va reinvestitsiyalash, daramad va xarajatlar balansini uzluksiz tahlil qilib va o'rganib boruvchi hamda ularga ta'sir ko'rsatuvchi sub'ekt.

2. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash qachon amalga oshiriladi?

- G'oyani shakllantirish va investitsiya loyihasiga aylantirish

jarayonida.

b. Loyihani amalga oshirishning turli variantlari ishlab chiqilishi jarayonida.

c. Muqobil loyihalar tanlovida aniqlangan optimal variant uchun.

d. Investorlar talabiga ko'ra.

3. Strategik rejalashtirishning uchta asosiy bosqichini ko'rsating?

a. Raqobatbardoshligini aniqlash; ichki muhit tahlili; strategiya ishlab chiqish.

b. Tashqi va ichki muhit tahlili; maqsad va vazifaning aniqlanishi; strategiya ishlab chiqish.

c. Natijaviylik tahlili; raqobatbardoshligini aniqlash; firmaning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash.

d. Strategiyani boshqarish; raqobatbardoshligini aniqlash; ichki muhit tahlili.

4. Strategiya nima?

a. Tanlangan yo'l, ya'ni korxona o'z faoliyatini, kelajagini o'ylab, kelajakdagi daromadini sarhisob qilib, korxonada qanday risklar borligini aniqlab, ularning oldini olish yo'llarini ishlab chiqish.

b. Turli davrlardagi korxona faoliyatini taktik rejalashtirishlar yig'indisi.

c. Bozorning tez-tez o'zgarib turishi va boshqa bir qancha omillar ta'sirida korxona faoliyatini rejalashtirish.

d. Strategiya – bu rejalashtirish.

5. Investitsiya loyihasi strategiyasini ishlab chiqishning zarurligi nimada?

a. Korxonaning bozor sharoitida faoliyat yuritishi sabab unga moslashib turish maqsadida.

b. Korxona imidji va qabul qilingan umumiy tamoyillarga ko'ra.

c. Xorijlik yoki nufuzli investorlar xohishiga ko'ra.

d. Loyiha maqsadiga erishish hamda uning ta'minlanish yo'llari, vositalari va usullarini oldindan belgilab olish maqsadida.

6. Strategiya nimaga asoslanadi?

a. Korxona faoliyatini qisqa va o'rta muddatga rejalashtirish.

b. Uzoq muddatli rejalashtirish va uni amalga oshirish yo'llarini ishlab

chiqish va tanlash.

c. Korxona rahbarlarining faoliyatlar istiqbolini ko'ra bilishini, korxona tomonidan tanlangan qarorlar aniqligini, korxona faoliyati yo'nalishini aniq tanlashni, kelajakdagi risklarni ko'ra bilish.

d. Korxona, investitsiya loyihasini rivojlantirish yo'li va tamoyili.

7. “Boshqaruv”ning mohiyati nima?

a. Inson yoki u tomonidan ishlab chiqilgan tizim orqali olib boriladigan tizimli jarayon.

b. Ma'lum bir ijobiy natijaga erishish uchun, uslublar va tamoyillar yig'indisi orqali biror ob'ektga maqsadga muvofiq ta'sir etish.

c. Aniq maqsadda asoslangan holda muayyan muddat davomida ob'ekt yoki faoliyatni boshqarish jarayoni.

d. Hodisa va jarayonlarni kuzatib va tartibga solib borish.

8. Diversifikatsiya strategiyasi nima?

a. Yangi turdagi mahsulotlar bilan boshqa bozorlarda yutuqqa erishish uchun korxona xarakati

b. Korxona mahsulotining bozorlarda taqsimoti

c. Korxona faoliyatini yo'nalishlarga bo'lib boshqarish harakati

d. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishni bosqichlarga bo'lib va ularga bog'liq risklarni taqsimlagan holda amalga oshirish

9. Loyiha strategiyasi nima?

a. Investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq tadbirlar.

b. Loyiyaning maqsadga muvofiqligini ta'minlash.

c. Loyihani kelajakda amalga oshirishni belgilash.

d. Korxonani barpo etish, uning faoliyati tashkil etilishini rejalashtirish.

10. Loyiyaning tashqi sharoitlar o'zgarishiga yuqori ta'sirchanligi – bu:

a. Ijobiy omil.

b. Salbiy omil.

c. Loyihani keyingi amalga oshirilishiga ta'sir etmaydi.

d. Ishlab chiqarish quvvatini oshirishni talab etadi.

3-MAVZU. INVESTITSIYA LOYIHASINI TAYYORLASHNI TASHKIL QILISH (INVESTITSIYA OLDI FAZASI)

3.1-topshiriq

Mavzu bo'yicha quyidagi kalit so'zlar mazmunini aytib bering:

1. Loyiha tsikli
2. Investitsion tsikl
3. Loyiha kontseptsiyasi
4. Loyiha g'oyasi
5. Investitsiyalash g'oyasi
6. Investitsiyalash variantlari
7. Muqobil loyihalar
8. Loyiha hayotiyliigi
9. Loyiha muhiti
10. Loyiyaning dastlabki rejasi
11. Loyiyaning texnik-iqtisodiy asosi
12. Loyiyaning dastlabki texnik-iqtisodiy asosi
13. Loyiha-qidiruv ishlari
14. Loyiha qurilishi
15. Loyiha tahlili
16. Loyihaviy tahlil
17. Investitsiya oldi fazasi
18. Investitsiyalash fazasi
19. Eksploatatsiya fazasi
20. Likvidatsiya fazasi

3.2-topshiriq

Mustaqil o'zlashtirish va o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Investitsiya oldi fazasi.
2. Investitsiya loyihasini tayyorlash.
3. Investitsiya loyihasini tayyorlash jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Investitsiya tsikli.
5. Loyihani ishlab chiqish bosqichlari.
6. Investitsiya g'oyasi, uni shakllantirish va asoslash.

7. Investitsiya loyihalari variantlarini ishlab chiqishning zarurligi nimada?
8. Kontseptsiya nima va loyiha kontseptsiyasi mazmuni nimadan iborat?
9. Loyiha kontseptsiyasini ishlab chiqish va unda e'tibor beriladigan asosiy masalalar.
10. Loyihani boshqarish investitsiya tsiklining qaysi bosqichlarini amalga oshiriladi?
11. Loyiha hayotiylik tsiklida loyihalarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari.
12. Loyihani boshqarishda investitsiya oldi tadqiqotlarining ahamiyati.
13. Loyihani dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash va texnik-iqtisodiy asoslashning zarurligi va farqli jihatlari.
14. Loyiha muhiti nima va u nimalarni o'z ichiga oladi?
15. Loyiha muhitining loyihani boshqarishga ta'siri.
16. Loyihani tasdiqlash va investitsiyalashga qabul qilishning boshqaruv jarayoni.
17. Loyihalarni boshqarishda tahlil va monitoringning ahamiyati.
18. Loyihaviy tahlilning tarkibi va mazmuni.
19. Loyiha boshqaruvida loyiha-qidiruv va qurilish bosqichi monitoringining ahamiyati.


3.3-topshiriq

Quyidagi jadval asosida loyihaning hayotiylik tsiklining 3 ta fazasida – investitsiya oldi, investitsiya va ekspluatatsiya fazalarida mevani qayta ishlash korxonasini tashkil etish bo'yicha investitsiya loyihasini amalga oshirishga doir bajariladigan ishlar mazmunini keltiring:

Investitsiya oldi fazasi	Investitsiya fazasi	Ekspluatatsiya fazasi

3.4-topshiriq

Investitsiya loyihasi uch fazani o'z ichiga olgan loyiha hayotiy tsiklida bajariladigan quyidagi ishlarning qaysi fazaga tegishli ekanligini ayting:



1. Ishlab chiqarish ob'ektining qurilishi.
2. Loyihaning biznes-rejasini ishlab chiqish.
3. Uskunalarni etkazib beruvchi bilan shartnoma imzolash.
4. Ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, mahsulot assortimentini ko'paytirish.
5. Ssuda hisob raqamini ochish.
6. Biznes-rejani ishlab chiqish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish.
7. Birinchi mahsulotni ishlab chiqarish.
8. Investitsiya loyihasi g'oyasining paydo bo'lishi.
9. Mahsulotni ichki bozorda sotish.

3.5-topshiriq

Quyidagi jadval asosida investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash bo'limlarining nomi va ularning asosiy mazmunini keltiring:

№	Bo'limlar nomi	Bo'lim mazmuni
1		
2		
3		
4		
5		
...		
n		

3-mavzu bo'yicha test savollari:

1. Investitsiya loyihasi hayotiylik tsikli necha bosqichdan iborat?

- a. 6
- b. 5
- c. 4
- d. 3

2. Loyiha ishtirokchilari kimlar?

- a. Loyihani moliyalashtiruvchi sub'ektlar.
- b. Loyiyaning amalga oshirilishiga aloqador yuridik shaxslar.
- c. Loyiha bo'yicha mas'ul rahbarlar.
- d. Loyiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi va o'z qiziqish va manffatlari doirasida aloqadorlik saqllovchi yuridik va jismonif shaxslar.

3. Investitsiya loyihasining investitsiya oldi fazasiga nimalar kirmaydi?

- a. Investitsiya imkoniyatlarini izlash.
- b. Texnik-iqtisodiy asosnoma.
- c. Loyiyaning dastlabki tayyorlanishi.
- d. Tajriba-sanoat ekspluatatsiyasi.

4. Turli vaqtlardagi pul oqimlarini yagona vaqt birligiga keltirish

uchun iqtisodiy tahlilda qanday tamoyildan foydalaniladi:

- a. Indeksflash.
- b. Modellash.
- c. Agregatlash.
- d. Diskontlash.

5. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslashning mohiyati nima?

- a. Loyihani turli jihatlari bo'yicha baholash va amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini asoslash.
- b. Loyihani amalga oshirishga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish asosida loyiha maqsadiga erishishning samarali yo'llarini aniqlovchi moliyaviy, iqtisodiy, texnik va unga oid hujjatlar to'plami.
